

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MARDONOVA RA'NO OCHILDIYEVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EPITETNING LEKSIK-SEMANTIK
HAMDA LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)
on philological sciences**

Mardonova Ra’no Ochildiyevna

Ingliz va o‘zbek tillarida epitetning leksik-semantik hamda
leksikografik xususiyatlari 3

Mardonova Rano Ochildievna

Lexic-semantic and lexicographic features
of the epithet in English and Uzbek languages 27

Мардонова Рано Ачилдиевна

Лексико-семантические и лексикографические особенности
эпитета в английском и узбекском языках 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MARDONOVA RA'NO OCHILDIYEVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EPITETNING LEKSIK-SEMANTIK
HAMDA LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2576 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.namsifl.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maxmaraimova Shoxista Tuxtashевна**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentalar: **Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Uralova Oysuluv Poyon qizi
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning "18 noyabr 2025-yil kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 116 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6 noyabr" kuni tarqatildi.
(2025 yil "6 noyabr" dagi № 2 raqamli reestr bayonnomasi).



N.T.Dosbayeva
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

I.I.Umrzaqov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc),
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fanida matnning baho ifodalash, ekspressiv, estetik va hissiy vazifalarini kuchaytirib, uning obrazlilikini oshirishga xizmat qiluvchi figurativ birliklar ko'ha davrlardan buyon lingvofalsafiy hamda filologiyaning umumiy muammolari kesimida o'rganib kelingan. Ham adabiyot, ham tilshunoslikning umumiy o'rganish obyekti hisoblangan epitetlarga murojaatning bor murakkabligi ham uning bir vaqtning o'zida ritorik va stilistik unsur ekanida kuzatiladi. Biroq epitetlarni 19-asrdayoq leksikografik kesimda o'rganishning istiqbollari uning tobora "lisoniylashib" borayotgan tabiatiga aniq chizgilar qo'yish imkonini berdi. Shunga qaramay, bir necha sohaning tekshirish obyekti hisoblangan epitetlarning lingvostilistik, ma'noviy xususiyatiga bugunga qadar ham yakdil xulosa berilganicha yo'q.

Dunyo tilshunoslari tomonidan epitet: leksik-semantik, grammatik, stilistik yondashuvda tadqiq etilib kelmoqda. Figurativ leksikaning tarkibiy uzvi hisoblangan bu toifa ifodalarning yasaliq qoliplari, tasnifiga doir muayyan metodologik qarashlar o'z isbotini topib, ayrimlari davr sinovidan o'tmay, ilmiy iste'moldan chiqib bo'ldi. Negaki tillarni tipologik kesimda tadqiq etishning bu nuqtasida til universalialari o'zini oqlamasligi turli tizimli tillar misolida dalillanmoqda. Binobarin, turli til oilalariga mansub figurativ unsurlar tasnifidagi tafovut, ularni lingvistik talqin etishdagi farqlar har bir tilda epitetlarning voqelanish qonuniyatlarini jiddiy o'rganish hamda tillar integratsiyasi shiddat bilan kechayotgan bir davrda milliy tillarning bor jozibasini shu orqali namoyon etishga bag'ishlangan tadqiqotlarga doimiy zarurat mavjud.

Mustaqillik davrida qator sohalar kabi lug'atshunoslikka ham jiddiy e'tibor berildi. "O'zbek tili izohli lug'ati"ning so'nggi yillar ichidagi bir necha yangi nashrlari, ikki tomlik "O'zbek tilining sinonimlar izohli lug'ati" ilmiy va kundalik iste'molga kiritildi. Zotan, "Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim"¹. Shunga qaramay, tilimizning ichki imkoniyati, jozibasini mujassam etuvchi o'zbek figurativ leksikografiyasini shakllantirishga ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, o'zbek tili epitetlar tizimini struktur, lug'aviy jihatdan tadqiq qilish, ularning semantik tabiatiga doir ma'lumotlarni aks ettiruvchi leksikografik asarlarni yaratish ana shunday dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730. (murojat qilingan sana va vaqti. 10.05.2023-yil, 15:10)

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” hamda Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi VMQ-222-son “2010-2020-yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugunga qadar epitetlarning figurativ, leksik-stilistik, leksikografik xususiyatlarini antik davr faylasuflari va o‘rta asr Yevropa olimlari Aristotel, Kvintilian, Demetriy, Georgiy, Trasimax, Isokrat, Joffrua de Vinsof, Kerve de Melklo, Jan de Garland hamda xorijlik qator tilshunos olimlar Sh.Balli, R.Yakobson, M.Baxtin, R.Vellek, O.Uorren, J.Lakoff, M.Jonson, B.M.Dupriez, G.Leech, C.Nesfield, G.Lakoff, R.A.Lanham, T.Wood, T.M.Bernstein, J.A.Cuddon, R.Jackendoff, MDH davlatlari tilshunos olimlari I.V.Arnold, I.R.Galperin, L.Tursunova, G.Pospelov, M.Kuznets, Yu.Skrebnev, L.Timofeyev, N.Vengrov, A.Shaligin, B.V.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy, K.S.Gorbachevich, A.N.Veselovskiy, A.Gornfeld, I.Ye.Barancheeva, S.A.Gubanov tomonidan tadqiq etilgan².

2. Античные теории языка и стиля – Санкт–Петербург: Алетея, 1936. – С. 176; Лободанов А.П. К исторической теории эпитета (античность и средневековье). Известия Российской академии наук. Сер. лит. и яз. 1984. Т. 43. № 3; Ломоносов М. В. Полн. собр. соч., т. 7. – М. – Санкт–Петербург: 1952. – С. 130; Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1955. – С. 184; Якобсон Р.О., О чешском стихе преимущественно в сопоставлении с русским. Сборник по теории поэтического языка. № 5. – Россия: Гос Изд, 1923 –122 с.; Бахтин М.М. Формальный метод в литературоведении. – Нью–Йорк: Серебрянный век, 1982. – 232 с.; Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – Москва: Прогресс, 1978; Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: Univ. of Chicago Press, 1980 (2008). – P 9; Lakoff G. *The contemporary theory of metaphor*. In A.Ortony (Ed.) *Metaphor and Thought*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. –128 p; Leech G. *Semantics*. – Harmondsworth: Penguin, 1981. – 386 p.; Lakoff G. *Cognitive Semantics // Meaning and Mental Representations*. Ed. V. Eco. – Bloomington: Indiana University Press, 1998. – P. 119–154; Lanham R. A. *A Handlist of Rhetorical Terms*. – Berkeley: University of California Press, 1991. – 205 p.; Nesfield J. C., Wood F. T. *Manual of English Grammar and Composition*. – London and Basingstoke: Macmillan Publishers Ltd., 1964. – 356 p.; Bernstein T.M. *The Careful Writer: A Modern Guide to English Usage*. – The Free Press: New–York, 1998. – 512 p.; Cuddon J. A. *A Dictionary of Literary Terms*. – Great Britain: W and J Mackay Limited, 1979. – 1024 p.; Jackendoff R. *Semantics and Cognition*. – Mass: MIT Press, 1983. – 241 p.; Арнольд И.В. *Стилистика. Современный английский язык*. – М. Флинта, 2012. – С. 130; Арнольд И. В. *Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования)*. – 3–е изд. – М.: Высшая школа, 1990. – 384 с.; Гальперин И.Р. *Текст как объект лингвистического исследования*. – М.: Едиториал, 2006. – 144 с.; Головенченко Ф.М. *Введение в литературоведение*. – М. Высшая школа, 1964. – С. 171; Рыбакова И.В. *К вопросу о лексико–стилистическом описании эпитета*. Уч.зап. Ярославского гос.пед.ин–та, вып. 52, 1964. – С. 3; Чижик–

O‘zbek tilshunosligida epitetlarga ilmiy obyekt sifatida stilistika, lingvopoetika kesimida murojaat qilingan (M.Mukarramov, A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov, B.Umurqulov, D.Xo‘jayeva, M.Mamadjanova, S.Umirova, M.Yo‘ldoshev, M.Abdupattoyev, I.Boltaeva, M.Yakubbekova³).

Mavjud o‘quv-metodik adabiyotlarda epitetlar o‘zining ilmiy asoslangan talqinini topgan. Bundan farqli, epitetlarning bevosita struktur, semantik tabiatiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda qo‘yilgan muammolarning to‘laligicha yechilmay qolganligi, izohtalab talqin va tahlillar bajarilgan ishlar salmog‘idan qoniqmaslik qatorida, mazkur obyektga metodologik yondashuvlarni bir qadar mukammallashtirish talabini qo‘yadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilning leksik-semantik tizimini chog‘ishtirma-tipologik o‘rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya; lingvomadaniyatshunoslik” mavzusi doirasida bajarilgan. (ITA-12-09-2012).

Tadqiqot maqsadi ikki tilda mavjud epitetlar leksik-semantik tasnifidagi tafovut va o‘xshashliklarni aniqlash, jahon va o‘zbek figurativ leksikografiyasining rivojlanish holatini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

Полейко А.И. Стилистика русского языка, ч. –Пермь: Воронеж, 1964. – С. 16; Астахов И. Эпитет. Литературная учеба, М: Изд. Наука, 1941. № 2. – С.101; Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. – М. Высшая школа, 1987. – 401 С; Паутынская В.А. Эпитет в творчестве А.Додэ. –М: Уч.зап. МГПИИЯ, т.25, И. 1961. – С. 295; Тимофеев Л.К. Основы теории литературы. – М. Просвещение, 1966. – С. 214; Гурсунова Л.А. Структурные типы и стилистические функции эпитета в языке английской художественной литературы XX в.: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М., 1973. –201с; Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. – Санкт–Петербург: Учпедгиз, 1960. – С.15; Тимофеев Л.И., Венгров Н. Краткий словарь литературоведческих терминов. – М: Учпедгиз, 1963. – С.180; Шалыгин А. Теория словесности и хрестоматия. Изд. 5–е. – Пг: Учпедгиз, 1916. – С. 37; Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. Санкт–Петербург: Учпедгиз, 1959. –С 201; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Санкт–Петербург: Наука, 1977 –401с; Горбачевич К.С. Словарь эпитетов русского литературного языка. – Санкт–Петербург: Норит, 2002. –224 с; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М: Высшая школа, 1989. –404 с; Веселовский А.Н. Из истории эпитета. <http://smalt.karelia.ru/filolog/lit/vesist.htm> –С 14; Горнфельд А. Эпитет. – В кн.: Вопросы теории и психологии творчества, т. 1. Изд. 2–е. – Харьков: Мирный труд, 1911. – С. 340; Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И. Цветаевой: семантический и структурный аспекты: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Самара: САГМУ, 2009. – С. 24.

³Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 90 б; Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Қўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.–161.; Каримов С.А. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарканд: СамДУ нашри, 2010. –192 б.; Umurqulov B. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: Filol. fan. d-i (DSts) diss. – Toshkent, 2022. – 117 b.; Хўжаева Д. Ўзбек тилида эпитет: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1995. – 116б; Mamadjanova M.O‘. O‘zbek va Ingliz tillarida epitetning chog‘ishtirma tadqiqi. Филол. фан. д-ри дис.автореф. – Farg‘ona , 2025. –56 б.; Умирова С. Узбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърят мисолида): Фил. фанл. б. фалс. д-ри. (PhD) дисс. автореф. – Самарканд, 2019; Йулдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дис. – Тошкент, 2009; Абдулаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри. дис. Фарғона, 2021, Болтаева И. Ўзбек халқ достонларида эпитет табиати: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2000.,–21 б, Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз дисс. – Тошкент, 2005.–257 б.

ingliz va o'zbek tillarida epitetlar tadqiqining tadrijiy rivojini o'rganish, har ikki til epitetlarini tasniflash, mazkur birlikning lisoniy maqomini aniqlashtirishga doir nazariy asoslarni qiyoslab aniqlash;

ingliz va o'zbek tili epitetlarini til sathlararo kesimdagi leksik-semantik tabiatini o'rganish; epitetlarning: metafora, aniqlovchi, evfemizm, disfemizm, frazeologizm, perifraza singari yondosh hodislardan farqini yoritish orqali uning stilistik tabiatini ochiqlash;

figurativ leksikografiyaning obykti va predmetini aniqlash, o'zbek tili epitetlarini o'rganishda leksikografik yondashuvning zaruratini dalillash;

ingliz va o'zbek tillarida epitetlar tipologiyasiga doir tahlillarni amalga oshirish hamda har ikki tilda epitetlar tasniflariga doir tafovut va o'xshash tomonlarini aniqlash;

epitetlar lug'atini tadrijiy kesimda ko'rib chiqish hamda bu turdagi lug'atlarni tuzishning eng maqbul tamoyillarini belgilashga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida ingliz va o'zbek tillariga mansub epitetlar, XIX, XX, XXI asrlarning turli davrlarida nashrdan chiqqan epitetlar lug'atlari tanlab olindi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi epitetlarning leksik-semantik, leksikografik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari. Ishda tavsifiy, qiyosiy, chog'ishtirma, leksikografik, komponent hamda statistik metodlardan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

epitetlarning metafora, aniqlovchi, evfemizm, disfemizm, frazeologizm, perifraza kabi yondosh hodisalardan farqi ularning morfostilistik, grammatik tabiati orqali oydinlashtirilgan;

epitetlar tipologiyasining qiyosiy tahlili asosida o'zbek tilidan farqli, ingliz tilida *ko'chirilgan epitetlar*, *ikki bosqichli epitetlar* grammatik tizim uchun me'yor ekanligi, mazkur tip epitetlari o'zbek tili uchun xos emasligi, *giperbolik epitetlar*, *antomaziyali epitetlarning* har ikki tilda ham uchrashi, shu kabi epitetik qurilmalarning hosil bo'lish imkoniyati ingliz tiliga nisbatan o'zbek tilida yuqori ekani dalillangan;

ingliz tiliga xos ikki bosqichli epitetlar tuzilmasida adverbial va atributiv komponentlarning mavjudligi bu turdagi epitetlarni semantik va stilistik jihatdan oddiy epitetlarga nisbatan murakkabroq deb baholashga asos bo'lishi, ularning bir yoki har ikki komponenti ham emotsional-baho va ifodaviy tuslarga ega bo'lib, aniqlanadigan so'zga badiiy-xususiy tavsif berishi aniqlangan;

tuzilajak o'zbek tili epitetlari lug'atining mikro va makrostrukturasini shakllantirish usullari ko'rsatib berilgan. Kompyuter hamda android qurilmalarda foydalanish imkonini beruvchi PHP v7.2 (Laravel Framework v6.2) dasturlash tili yordamida ishlab chiqilgan <https://epithets.netlify.app/> (o'zbekcha-inglizcha epitetlar elektron lug'ati) interaktiv ilovasidan foydalanishning afzalliklari ochiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi epitetlar ifoda shaklida semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlar, stilistik omillarning yoritilganligi, tasniflanganligi,

lugʻatlarda izohlanishining aniqlanganligi turli tizim figurativ leksikasini chogʻishtirma kesimda oʻrganuvchilar uchun muhim manba boʻla olishi bilan belgilanadi;

ingliz va oʻzbek tillaridagi epitetlar misolida asoslangan tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy maʼlumot berishi bilan birga stilistika, figurativ leksikografiya masalalarini oʻrganuvchi stilistika, lingvopoetika, leksikografiya, tillar tipologiyasi kabi sohalar boʻyicha darslik va qoʻllanmalar yaratilishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi epitetlar tadqiqini aks ettiruvchi jahon lugʻatshunosligidan olingan materiallar, shuningdek, fanda epitetlar tasnifiga tegishli metodologik asoslarning ingliz va oʻzbek tillari figurativ leksikasi imkoniyatlaridan kelib chiqib izohlanganligi, nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, metodik jihatdan mukammalligi, oldiga qoʻyilgan muammoning aniq va yetarlicha asoslanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, jahon tilshunosligining yangi yoʻnalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsiya epitetlarning struktur, leksik-semantik hamda lugʻat xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan barcha turdagi tadqiqotlar uchun nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.

Ishda keltirilgan faktik materiallardan oʻzbek tili stilistikasini mukammallashtirishda, tilshunoslikka doir, figurativ terminologik lugʻatlar tuzishda, oliy oʻquv yurtlarida maxsus kurs oʻqitishda, stilistika, lingvopoetika, matn tilshunosligidan qoʻllanmalar, darsliklar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Dissertatsiyaning figurativ leksikografiyaning obykti va predmetini chegaralash, oʻzbek tilida epitetlar lugʻatini tuzishga doir natijalaridan:

tuzilajak oʻzbek tili epitetlari lugʻatining mikro va makrostrukturasini shakllantirish usullari, kompyuter hamda android qurilmalarda foydalanish imkonini beruvchi PHP v7.2 (Laravel Framework v6.2) dasturlash tili yordamida ishlab chiqilgan <https://epithets.netlify.app/> (oʻzbekcha-inglizcha epitetlar elektron lugʻati) interaktiv ilovasidan foydalanishning afzalliklariga doir xulosa va ilmiy natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan OT-F1-030 “Oʻzbek adabiyoti tarixi” koʻp jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 27-iyuldagi 01/10-1420-son maʼlumotnomasi). Natijada epitetlarning figurativ leksikografiyadagi oʻrnini aniqlash va shunga mos tarzda ularni lugʻatlarda berish tamoyillarini ishlab chiqishga oid maʼlumotlarning takomillashuviga erishilgan.

epitetlar tipologiyasining qiyosiy tahlili asosida oʻzbek tilidan farqli, ingliz tilida *koʻchirilgan epitetlar*, *ikki bosqichli epitetlar* grammatik tizim uchun meʼyor ekanligi, mazkur tip epitetlari oʻzbek tili uchun xos emasligi, *giperbolik epitetlar*, *antomaziyali epitetlarning* har ikki tilda ham uchrashi, shu kabi epitetik qurilmalarning hosil boʻlish imkoniyati ingliz tilidan farqli, oʻzbek tilida yuqori ekaniga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va

adabiyoti universitetining davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2021-2023-yillarga mo'ljallangan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 18-martdagi 01/4-1017-son ma'lumotnomasi). Natijada figurativ leksikografiyaga doir nazariy ma'lumotlarning mukammallashuviga erishilgan;

epitetlarning metafora, aniqlovchi, evfemizm, disfemizm, frazeologizm, perifraza kabi yondosh hodisalardan farqi ularning morfostilistik, grammatik tabiati, ingliz tiliga xos ikki bosqichli epitetlar tuzilmasida adverbial va atributiv komponentlarning mavjudligi bu turdagi epitetlarni semantik va stilistik jihatdan oddiy epitelarga nisbatan murakkabroq deb baholashga asos bo'lishi, ularning bir yoki har ikki komponenti ham emotsional-baho va ifodaviy tuslarga ega bo'lib, aniqlanadigan so'zga badiiy-xususiy tavsif berishiga oid tahliliy fikrlar va nazariy xulosalaridan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" nomli dasturlar senariysini tayyorlashda (2024-2025-yillar) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 20-martdagi 05-09-353-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillarida epitetlarning stilistika va lingvopoetikadagi o'rniga doir ma'lumotlarning mazmunan boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 13 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 2 ta, xorijiy jurnalda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlardan iborat bo'lib, 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, metodlari, tadqiqot ob'yekti, predmeti, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Epitetlar tadrijiy talqini: Epitetlar semantikasini oydinlashtirish va tasnif muammosi**" deb nomlangan birinchi bobida epitetning fandagi talqini va uning tasnifi muammolari ko'rib chiqilgan.

Antik davrlardayoq epitetga notiq so'zamolligi, so'zga chechanligini oshiruvchi qurol sifatida qaralib kelingan. Epitet borasida antik ritorik Mark Fabiy Kvintilian atroflicha ma'lumot berib, epitetni troplarga yondosh hodisa deb

bilgan: “proprletate”, “attributa”ning “epitheta” (epitetlar-aniqlovchilar)” bo‘lib namoyon bo‘lishida mantiqdan og‘ishish yo‘q. Shu kabi, Aristotel, Mate de Vand, Joffrua de Vinsof, Kerve de Melklo, Jan de Garland kabi ritorlarning qarashlari ma’lum⁴.

Sh.Ballida sifatlovchi – gipostaz, shu orqali turli ko‘rinishlardagi gipostatik transpozitsiyalarga yoki sifat bilan ifodalangan to‘ldiruvchiga qarshi qo‘yiladi⁵.

1919-yilda R.Yakobson, urg‘u bilan tavsiflanadigan emfatik epitetni ajratib, poetiklik nutq tarkibiy komponentlarini qayta baholashdir, deya xulosa qildi⁶.

Mazkur bobda, shuningdek, M.Baxtin, R.Vellek, O.Uorren, M.Jonson, M.Terner, J.Fokone, F.R.Kubayeva, X.Vang, B.M.Dupriez, G.Leech, C.Nesfield, G.Lakoff, R.A.Lanham, T.Wood, T.M.Bernstein, J.A.Cuddon, R.Jackendoff, I.V.Arnold, V.V.Vinogradov, I.R.Galperinning epitet haqidagi qarashlari muhokama qilindi. I.R.Galperinda epitet jumladagi modallikni ifodalovchi stilistik vosita⁷. Bu modallik badiiy tasvirning yetakchi dominantasiga birlashtirilgan va matnning turli qismlariga “tarqatib yuborilgan” epitet, metafora, o‘xshatish, qiyos, tasviriy oborotlardan iborat tematik maydonga xos tarzda yuzaga chiqadi. G.Pospelov, M.Kuznets, Yu.Skrebnev, L.Timofeyev, N.Vengrov uchun epitet – jumladagi ikkinchi darajali so‘z va u jumladagi boshqa bir so‘zga ma’noni boyitish, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirish maqsadida bog‘lanib keladi⁸.

A.Shaligin⁹ va B.V.Tomashevskiyda “epitet tekshirilayotgan so‘z anglatgan predmetga yangi belgini birlashtirmaydi – shu so‘z ifodalagan belgini takrorlaydi. Bu jihati bilan epitet mantiqiy sifatlashdan farqlanadi”. B.V.Tomashevskiy, A.N.Veselovskiyning ilmiy xatosi – epitetlarni metaforik epitet, metafora-epitetga ajratishdir. Zero, A.P.Kvyatkovskiy, S.Ye.Nikitina, N.V.Vasilyevalar: “Epitet shaxs, predmet, hodisaning metaforik sifat orqali ifodalangan obrazli tavsifi” deya to‘g‘ri izohlaydilar. V.M.Jirmunskiy epitet deya faqat sifatlashni tushunadi: *My voice cut into the silence. The words hung there, seating themselves on the little room long after the sound had died away* (J.Moyes, Me before you) gapida metafora fe’lli birikma tarkibida voqelangani sabab, u epitet emas.

O‘zbek tilida epitetni M.Mukarramov, S.Karimov, D.Xo‘jayeva, A. Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, B.Umurqulov, D.Xo‘jayeva, M.Mamadjanova, I.Boltaeva, M.Yakubbekovalar o‘rganishgan. O‘zbek va turk tillarida aniqlovchi turlarini tadqiq etgan Z.Xudoyberganova *qizil gul – kizil chiqek* birikmasini o‘zbek

⁴ Лободанов А.П. К исторической теории эпитета (античность и средневековье). Известия РАН. Сер. лит. и яз. 1984. Т. 43. № 3; Ломоносов М. В. Полн. собр. соч., т. 7. – М. – Л., 1952. – С. 130.

⁵ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1955. – С. 416.

⁶ Якобсон Р. Лингвистика и поэтика. Структурализм: “за” и “против”. – М., 1975; Якобсон Р. О., О чешском стихе преимущественно в сопоставлении с русским. Сборник по теории поэтического языка. № 5. – Россия: Гос Изд, 1923 –122 с.

⁷ Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. Изд. 4–е, стереотипное. – М: КомКнига, 2006. – 144 с.

⁸ Туреунова Л.А. Структурные типы и стилистические функции эпитета в языке английской художественной литературы XX в.: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М: МГПИИЯ, 1973. Вунда: Пospelov Г.Н. Теория литературы. – М: Учпедгиз, 1940. – С. 64; Кузнец М.Д., Скрбнев Ю.М. Стилистика английского языка. – СПб: Учпедгиз, 1960. – С.15; Тимофеев Л.И., Венгров Н. Краткий словарь литературоведческих терминов. – М: Учпедгиз, 1963. – С. 180.

⁹ Шалыгин А. Теория словесности и хрестоматия. Изд. 5–е. – Пг., 1916. – С. 37.

tili jihatidan otli birikma, turk tilshunosligi me'yoriga ko'ra sifatli birikma ekanini qayd etadi¹⁰: *nafsi yomon, nafsi buzuq – buzuq nafs, ko'ngli buzuq – buzuq ko'ngil. Ko'ngli buzuq – sifatli qurilma, otli emas. M., Ko'ngli buzuq, himmatsiz kimsalarni majlisiga aslo yo'latmas, balki majlislarida keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilar suhbatidan bahramand bo'lardi...* (M.Ali, Amir Temur chamani¹¹) jumlasida u *kimsalar* aniqlanmishiga tobelanib kelmoqda, *ko'ngli buzuq* birikmasi ham otli birikmaning tobe komponenti sifatida epitet bo'la olmaydi. Quyidagilar ham epitet emas: *Botir bo'ladi, og'alar, odamzotning chayiri* (“Alpomish”). Bunda *odamzotning chayiri* iborasini *chayir odamzot* deya o'zgartirib bo'lmaydi va uni epitet deya baholab bo'lmaydi.

Epitetni morfologik belgilariga ko'ra tadqiq etgan D.Xo'jayeva epitetni metaforadan keskin ajaratadi va uning “metafora emas”ligini ta'kidlab o'tadi. Holbuki, epitetni metaforaning ishtirokisiz tasavvur qilish uning obrazli tabiatini inkor etish bilan barobar. M., Men sizni sevaman va nafratlanaman, *Mayda tuyg'ularni ko'rmayman ravo* (U.Azim); “U sevgisin sotdi”, qichqirar Bir ayolning *qasoskor ko'zi* (U.Azim); Pulni ol! Or-nomus *eski aqida*. Ishvani yopishtir badanga, yuzga, *Ishva bozori* bu! Stollar — rasta! Bir dam sovumasin bir *nodon bazm.* (U.Azim); Sezdingmi, xonada bir *armon hidi*, Kingadir yoqmadi bu *ma'sum qo'shiq...* Marks Byornes? Ko'yलगin ezib, *Olifta, nahs bosgan davra* cho'ksin tiz. Boshimni tark etmas *o'jar bir xayol...* Ki, ular *pok hislar yurti* — vatani. Yoki *a sunny smile* – nurli tabassum, *wild wind* – jo'shqin shamol, *close friendship* – mustahkam do'stlik, *destructive charms* – halok etuvchi ishva-noz, *deep feeling* – chuqur tuyg'ular, *radiant maiden* – nurli qiz. Keltirilgan o'zbekcha hamda inglizcha epitetlar – metaforik asosli epitetlardir.

D.Xo'jayeva o'zbek tilida epitetlarni: 1.Epitet tarkibidagi semalar miqdoriga ko'ra; 2.Epitet sodir bo'lishida so'zning o'z turkumida qolish yoki qolmasligiga ko'ra (ot, sifat, fe'l, ravish); 3.So'zlarning epitet hosil qilish miqdoriga ko'ra farqlaydi¹². Bunda sodda epitetga: *kumush qish, zumrad bahor, o'tli nafas* kabilarni, murakkab epitetga: *simob to'lqinlari, kuzning oltini, yaproq oltinlandi* kabilarni keltirishi bahsli. Tasnifning ikkinchi talabi ham unchalik ishonchli emas: misollardagi chalkashlik, noaniqlik epitetlar mohiyatini ochishga xizmat qilmagan: uning *yasama epitetlar* va *o'zak epitetlar* atamalarini ilmiy iste'molga tatbiq etishga harakatida epitetning metaforik tabiatini payqamaslik holati mavjud.

B.V.Tomashevskiyning epitetlar tasnifiga doir yondashuvi ilmiy jihatdan o'zini oqlashini qayd etish lozim. Olim epitetlarni:epitetlarni: 1)tavsiflovchi – *kumush jilg'a*, 2)kuchaytiruvchi – *dahshatli bo'ron*, 3)ideallashtiruvchi – *hayotimning o'n sakkiz bahori*, 4)(matnni) bezovchi, 5)turg'un – *moviy osmon* kabi turlarga ajratadi¹³. A.N.Veselovskiyda esa epitet: 1)tavtologik (*красна девица, белый свет*) va 2)izohlovchi epitet¹⁴. So'ngilari ham 2 guruhga: *epitet-metafora*

¹⁰ Худойберганава З. Ўзбек ва турк тилларида аниқловчи турлари. Тил таълими ва адабиёт таълими. – Тошкент: Тил ва адабиёт таълими, 2002, – 63-66 б.

¹¹ Мухаммад Али. Амир Темур чамани. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 192.

¹² Хўжаева Д. Ўзбек тилида эпитет: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1995. – 116 б.

¹³ Томашевский Б.В. Теория литературы,- изд. третье, 1927; Томашевский, Б. В. Теория литературы. Поэтика: учебное пособие / Б. В. Томашевский. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 334 с.

¹⁴ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. — М.: Высшая школа, 1989. – 404 с.

(*otash qalb*) va *sinkretik epitetga* ajratiladi. V.M.Jirmunskiyga ko‘ra epitetni “tor ma’noda” va “keng ma’noda” tushunish XVIII va XIX asr poetik uslub evolyusiyasi natijasidir.

I.V.Volobuyev reklama diskursidagi epitetlarni: 1)tushuntiruvchi (*Lavander Girl*); 2)teri orqali his etilganni nomlovchi (*Apricot Silk*), 3)hid bilish orqali his etilganni atovchi (*Amber Queen*), 4)sifat darajasini ko‘rsatuvchi(*Royal Highness*)larga bo‘ladi¹⁵ va ergonimlar hosil bo‘lishidagi ishtirokini tushuntiradi.

V.P.Moskvinda epitetlar: 1)vazifasiga ko‘ra: a)tasviriy(*moviy osmon*) va b)lirik(*mushtipar ayol*) turga bo‘lingan. 2)Atash usuliga ko‘ra: a)to‘g‘ri ma’noli epitetlar (*tandir somsa*); b)ko‘chma ma’noli epitetlar: 1)metaforik epitetlar (*shirin tush*), 2)metonimik epitetlar (*uyg‘ongan shahar*). Bunday epitetlarga trop deya qaraladi¹⁶. 3)Semantik xususiyatiga ko‘ra: a)rang bildiruvchi (*feruza osmon*), b)baholovchi (*yil futbolchisi*), v) tavsiflovchi epitetlar¹⁷. 4)Tarkibiga ko‘ra: a)sodda epitetlar (*quvnoq ta’tillar*), b)murakkab epitetlar (*kishi vujudini yayratadigan may havosi; soyada o‘sgan rais* (A.Qahhor, Sinchalak)); 5)qo‘llanishiga ko‘ra: a)umumtil epitetlari, b)individual-muallif epitetlari; 6)turg‘unligiga ko‘ra: a) erkin epitetlar (*asovfe’l*), b)turg‘un epitetlar (*oltin qo‘llar*).

I.R.Galperinda epitetlar: 1.Turg‘unligiga ko‘ra – lisoniy epitetlar (language epithets: *sevgi iztirobi, baxtli onlar, baxt nashidasi* va b.) va nutqiy epitetlar (speech epithets: bunday epitetlar muallif talqinidagi original lisoniy topilmalardir)ga bo‘linadi; 2.Morfologik-sintaktik ifodasiga ko‘ra ingliz tilidagi epitetlar bir qator qoliplarga ega; 3.Semantik tabiatiga nisbatan epitetlar assotsiativ va noassotsiativ (bunday epitetlar predmetga favqulodda kuzatilmagan belgilarni biriktirishi bilan ajralib turadi) turlarga bo‘linadi.

L.A.Tursunova epitetlarni shunday tasniflaydi: 1) epitetlarda aniqlovchi va aniqlanmish o‘rnining turg‘unligiga ko‘ra, 2) epitetning struktur-sintaktik xususiyatiga ko‘ra, 3) epitetlarning semantik xususiyatiga ko‘ra¹⁸.

Epitetdagi aniqlovchi-aniqlanmishning turg‘unligiga ko‘ra epitetlar quyidagicha farqlanadi: 1. **Original epitetlar** (epitetning tegishli so‘z bilan kamdan-kam aloqasi kuzatilsa. Masalan, *Tomirlarida yurgan So‘zin topmoq istagan, O‘zin topmoq istagan Qur‘on tarafga yursin!; Men Turonning qadim qo‘ng‘irog‘imen, Jarang bersam qir-dalasi uyg‘onar... Kuz yanglig‘ so‘lib, ozib, Bozillagan cho‘g‘ bosib* (H.Xudoyberdieva)); *It’s in the fire of my eyes, And the flash of my teeth, The swing in my waist, And the joy in my feet. I’m a woman Phenomenally.*”...(M. Angelou)

2. **Odatiy epitetlar** (*And of his house-keeping and high renown* (baland mashhurlik), *Which made him resort to fair London town* («King John and the abbot» balladasidan); *His hound is to the hunting gane, His hawk to fetch the wild-*

¹⁵ Копоть Л.В. Атрактивная функция эпитета в названиях сортов роз / Вестник АГУ. Выпуск 1. (172). 2016. – С. 98-99.

¹⁶ Москвин В.П. Эпитет как предмет теоретического осмысления // Электронный научно-образовательный журнал ВГПУ «Грани познания». №4 (14). Декабрь 2011. –5 с.

¹⁷ Горбачевич К.С., Хабло Е.П. Словарь эпитетов русского литературного языка. – Санкт-Петербург: Норинт., 1979. –С 221.

¹⁸ Турсунова Л.А. Структурные типы и стилистические функции эпитета в языке английской художественной литературы хх века: Автореф. канд. филол. наук.– Москва: МГПИИЯ, 1973 – 198 с.

fowl hame (yovvoyi qushli makon) («The twa corbies» she'ridan)); (*O these are hard questions for my shallow wit* (zaif aql), *For I cannot answer your grace as yet; But if you will give me but days space* (bo'sh kun), *I'll do my endeavor to answer your grace* («King John and the abbot» balladasidan). *Ko'kka boqdim, o't tutashdi jonim aro Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror! U boqadi zangor osmonga, Bir zumgina qoladi qotib. Zangor osmon dehqon o'g'longa Nimanidir qiladi tortiq.* (U.Azim) va 3. **Turg'un epitelar** (*I will make a palace fit for you and me Of green days in forest and blue days at sea* (R.L. Stevenson). *O'g'limga eng shirin so'zlar aytaman, Mening yoqligimni hech kim bilmaydi.* (U.Azim). **Oltin baliqchaga aylandi tilim, Eshqobil emasman endi men** (E. Shukur).

Epitelarning boshqa tasnifiga ko'ra (V.A.Kucharenko¹⁹): 1)tavtologik epitet: *green grass*, 2)baholovchi epitet: *a pompously majestic female*, 3)ta'riflovchi epitet: *an unnaturally mild day*, 4)metaforik epitet: *the smiling sun*, 5)metonimik epitet: *the sleepless pillow* farqlanadi²⁰.

Fanda epitelar tasnifiga doir mavjud qarashlarni tahlil qilish negizida ularning asosiy ikki jihatiga ko'ra farqlanganligi aniqlandi: 1) mazmuniy xususiyatiga ko'ra, 2) shakliy xususiyatiga ko'ra.

Shakliy xususiyatiga ko'ra epitelarda: a) ot aniqlanmish+aniqlovchi sifat; b)ot aniqlanmish+ot aniqlovchi; d) ot aniqlanmish+aniqlovchi infinitiv; e)ot aniqlanmish+aniqlovchi ravish modellari farqlanadi. Bu modellar turli tizimli tillarda ahamiyatsiz: ushbu qoliplar o'zbek tilida faol, ingliz tilida esa epitelar yasalishining yana quyidagi modellari mavjud.

1.Sifat (Adjective) + Ot (Noun): eng oddiy va keng tarqalgan model. Epitet sifatida foydalaniladigan sifat o'tni ta'riflaydi. M., *bright sun, brave soldier, dark night*; 2.Ot (Noun) + Sifat (Adjective): bu struktura adabiy matnlarda yoki maxsus uslubda ko'proq uchraydi. Sifat asosan otdan keyin keladi. M., *sea vast, eyes blue, voice soft*; 3.Ot (Noun) + Ot (Noun): bunda birinchi ot ikkinchisini epitet sifatida tavsiflaydi. M., *lion heart, rose garden, night sky*; 4.Sifatlanuvchi sifatidagi fe'l (Verbal Adjective) + Ot (Noun): bu modelda sifat holatidagi fe'l o'tni ta'riflaydi. M., *glowing light, whispering wind*; 5.Qo'shma otlar (Compound Nouns): qo'shma otlardan tashkil topgan epitelar. M., *heart-stopping beauty, bone-chilling cold, blood-red sky*; 6.Frazaviy (Phrase-based) epitet: bir necha so'zdan iborat bo'lgan frazalar epitet sifatida ishlatiladi. M., *as silent as the grave, as sharp as a knife*; 7.Tashbeh (Simile-based) epitelar: bunda epitet tashbeh orqali yaratiladi. M., *as brave as a lion, as cold as ice*. Biroq kuzatuvlarimiz ot aniqlanmish+ot aniqlovchi modelining *in predlogli konstruksiyasi* ham ingliz tilidagi epitelarni hosil qilishini ko'rsatdi. Xususan, *It's the fire in my eyes, And the flash of my teeth, The swing in my waist, And the joy in my feet* (Maya Angelou, Phenomenal Woman) – joy in my feet – oyoqlardagi quvonch, *the fire in my eyes* – ko'zlardagi olov kabi.

Umumiy holda fanda epitelarning an'anaviy tarzda quyidagi turlari ajratilgani aniqlandi: 1) oddiy epitet (simple epithets: *romantic buccaneer*); 2)

¹⁹ Кухаренко В. А.Практикум з стилістики англійської мови: Підручник. – Вінниця: Нова книга, 2000. – 160 с.

²⁰ Кухаренко В. А.Практикум з стилістики англійської мови: Підручник. – Вінниця: Нова книга, 2000.– 160 с.

murakkab epitet (compound epithets: *brilliant sun-flashing ripples*); 3) ikki pog'onali epitet (two-step epithets: *a tired old town*); 4) iboraviy epitet (phrase epithets: *despite the dress and crushed-strawberry mouth*); 5) inversiyali epitet (reversed epithets²¹: *your rotten sack-bag of a body*).

“**Epitet til sathlararo birliklari kesimida**” deb nomlagan ikkinchi bobda epitet va unga yondosh hodisalarda semantik ixtilof va uyg'unlik, epitetlarning morfo-sintaktik sathdagi semantik xususiyatari, ingliz va o'zbek tillaridagi epitetlar shakliy-semantik tabiatidagi tafovut masalalari ko'rib chiqildi.

Metafora – epitetlar hosil bo'lishida yetakchi usul, bunda metafora va epitetning bitta nuqtada kesishuvi asosan badiiyatda kuzatiladi. Zotan, badiiy matnda so'z ma'nosi qayta idrok etiladi va talqin qilinadi²².

Bob doirasida 1)oddiy metafora (*Ko'zlari chaqmoq tulpor, Tuyog'i chaqmoq tulpor. Suvlik lablarin yirtgan, Yollari bayroq tulpor. O'jar tulpor, tong tulpor, Yo'llari osmon tulpor, Berayinmi jon, tulpor?! Sen mening mast ruhimsan Vujudi olov tulpor, Olovli yalov tulpor.* (U.Azim); *'That was a sin, and a very great sin, But pardoned it may be/ 'All that with amendment/ said Earl Marischal, But a quacking heart had he.* (Ballads)), 2)personifikatsiya (*Hurkak ko'zlarida iymnish, hadik* (H.Xudoyberdieva)) hamda 3)sinezteziya (*Mayin-mayin saharlar turib, O'tqazardim mayin-mayin gul.* H.Xudoyberdiyeva) asosli epitetlar ko'rib chiqildi.

Epitetni metaforadan farqlovchi tuslanishli shakli, fe'lning infinitiv shakli ham tahlilga tortildi: 1) *I had barely stepped on the sidewalk and looked meekly around before a squat, gray-haired man gumming a pipe approached.* (The Devil Wears Prada (novel)); 2) *It was here I flinched inwardly, realizing that both of our salaries together for an entire week's work was by far the most insignificant expense* (The Devil Wears Prada (novel)); 3) *She must have read my mind, because the phone rang immediately.* (The Devil Wears Prada (novel)); 4) *Saida telefonga javob beradimi, kelgan-ketgan odamlar bilan muomala qiladimi, qo'lida qog'oz kapalakday uchib, hali u eshikka, hali bu eshikka kirib chiqadimi – boshidan xayol arimay qoldi: gimnastyorka va etik kiyib dalalarni aylanadi, qaerga borsa, kolxozchilar o'rab olishadi, kolxoz klubida minglarcha odamni og'ziga qaratib katta-katta nutqlar so'zlaganida, orqa qatorda o'tirganlar beixtiyor oldinga siljib kela beradi, kolxozda partiya turmushi va kolxoz hayotining hamma sohasida ish qaynaydi.* (A.Qahhor, Sinchalak);

Epitet va aniqlovchi. Epitetning matnda voqelanishi aniqlovchi orqali sodir bo'ladi, biroq har qanday aniqlovchi-aniqlanmish qurilmasiga ega birikmalarning hammasi ham epitet hisoblanavermaydi. Ingliz tilida hamma aniqlovchi ham ot refentining alohida belgisini ifodalamaydi, o'z denotatiga mustaqil “birikadigan” ot yonidagi tiklovchi, tavsiflovchi vazifasini boshqa, ajratish funksiyasini bajarayotgan aniqlovchi bilan bir qatorda turadigan sintaktik birliklar ham bajarishi mumkin²³. Ingliz tilida aniqlovchi: 1)sifat yordamida yasaladi: *If a woman shows*

²¹ R.Galperin I. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Едиториал, 2006. – С. 160.

²² Мурашкина О.В., Дедова О.М., Корнев В.А. Метафорические эпитеты и их стилистические функции [Электронный ресурс] Язык и текст. 2022. Том 9. № 2. – С. 22–35.

²³Кушшаева И. Инглиз тилида аниқловчининг функционал–семантик хусусиятлари. “Тил тизими ва нуткий фаолият” мавзусидаги Республика конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2001. –Б. 134.

character, they say about her: “A harmful woman”. If a man shows character, they say about him: “He is a good guy” (Margaret Tetcher) I.R.Galperin talqinidagi ushbu A+N qolipida sodda va murakkab (tarkibli) sifatlarning ishtiroki bor. Sodda sifatlar, asosan ortirma daraja ko‘rsatkichlari bilan qatnashsa, *-ed* suffiksli murakkab sifatlar (m., *flat-cheeked, mild-eyed*) ingliz tili frazeologik sathining birliklariga aylangan.

Ayrim murakkab sifatlar o‘zida o‘xshatishning vositasiz shaklini namoyon etadi (*a small, bird-like head* – qush boshiga o‘xshagan kichkina bosh²⁴). 1) Sifatdosh yordamida (I.R.Galperindagi Participle+N qolipi misolida): *A man who embodies all the best qualities is a real punishment* (Sofi Loren); 2)son yordamida: *I finally realized that life is only one*; 3)olmosh yordamida: *Not a single person is able to fill your life entirely, he simply will not be able to understand some thoughts and feelings. This is where friendship works wonders* (Sofi Loren); 4)ot bilan (N+N qolipli): *If you were lucky enough to keep the soul of a child in you, then the best thing in your life is yet to come* (Sofi Loren); 5)egalik qo‘shimchali ot yordamida: *Because of emancipation, women have lost their main feature – mystery.* (Greys Kelli, Monako qirolichasi); 6)predlogli ot bilan (ikki ot turkumidagi so‘zdan iborat bo‘lgan va of-phrase qolipida birlashgan bu epitetlarni I.R. Galperin “reversed epithet” - “teskari epitet” deb nomlaydi. Bunda *of* yoki o‘zga predlogli ot epitet vazifasini bajarishga xoslanadi): *Put on the cover of the book; Flowers from the garden are very cute*; 7)infinitiv bilan: *I want to defend my doctoral dissertation; I have to call my mom; No need to postpone the lessons for tomorrow*; 8)predlogli gerundiy bilan: *My husband doesn’t like to argue*; 9)ravish yordamida: *The room above is spacious.* Bu usullar orasida sifad, sifadosh, ot bilan ifodalangan aniqlovchilar matnda tasviriylik, predmet belgisini ajratib ko‘rsatish va obrazlilikni ta’minlashda samara beradi, biroq qolgan 7 usul haqida bunday deb bo‘lmaydi: mazkur usullarni kammahsul deb hisoblaymiz.

O‘zbek tili misolidagi aniqlovchining ifoda manzarasi esa quyidagicha. M.Asqarova va A.G‘ulomov o‘zbek tilida aniqlovchini uch xilga ajratadilar: sifatlovchi, qaratuvchi va izohlovchi (*O‘zbekiston qahramoni Erkin Vohidov*). Sifatlovchining ifodalanishi: 1.Sifat bilan: *mehribon ona, o‘zboshimcha ish*; 2.Sifadosh bilan: *kechikkan hayot*; 3.Ravish bilan: *ko‘p mashaqqat*; 4.Son bilan: *birinchi muhabbat*; 5.Adyektiv xarakterli olmosh bilan: *o‘sha damlar* (Adyektiv xarakterli olmoshlar — bu grammatik va semantik jihatdan sifad xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi olmoshlar bo‘lib, ular gapda sifadosh vazifasida ishlaydi, ya’ni so‘zlashuvda sifadga xos ma’no yuklaydi); 6.Belgi anglatuvchi ot bilan: *oltin dalalar*; 7.Undov va mimema bilan: *g‘ir-g‘ir shabada*.

Qaratuvchining ifodalanishi: 1.Ot bilan yoki ot o‘rnida qo‘llanadigan olmosh bilan: *Dashnobod anorlari*. 2.Otlashgan so‘z bilan: *mening qarorim*; a)otlashgan sifad bilan: *yaxshilarning o‘giti*; b)otlashgan son bilan: *uchovlonning ahdi, yuzning hammasi*; v)otlashgan fe‘l bilan (bizningcha, M.Asqarova va A.G‘ulomovning bu tasnifida otlashgan fe‘l emas, sifadosh ko‘rsatilishi kerak, chunki harakatdan orttirilgan belgini o‘ziga qabul qiluvchi bo‘lak – sifadoshdir): *birlashgan o‘zar*,

²⁴Гальперин И.Р. English Stylistics: стилистика английского языка. – М.: Либроком, 2010. – 336 с.

birlashmagan to'zar; g) otlashgan olmosh bilan: *Qaysingizning onangiz doktor bo'lib ishlaydi?* Sanalgan usullar tasviriylikni hosil qiladi. Biroq qaratqich+qaralmishli birikmalardan faqat otlashgan komponentli qurilmalar hissiylik va ekspressiyani yuzaga keltirishda samarador. Ammo epitetlarning asosini tashkil etuvchi aniqlovchili konstruksiyalar tasnifiga olmosh orqali ifodalangan modellarni ham qo'shishni taklif qilamiz: bu kabi qurilmalar tasviriylik, ta'kid ma'nosini kuchaytiradi: *qanchalar bosiq odam* va b.

Epitet va o'xshatish. Epitet qiyos munosabatini aks ettiruvchi obraz hosil qilish vositasidir. Epitet va o'xshatish o'rtasiga chegara qo'yish o'zini oqlamaydi: predmet, shaxs, harakat, muayyan voqelikning belgisini ifodalovchi epitetning bir qator ifoda usullari mavjud bo'lib, o'xshatish ularning biridir.

M. Mukarramov fikricha, o'xshatish o'xshatish ifodalovchi elementlarni olmay o'xshatiluvchi obyekt bilan yonma-yon keladi va metaforik epitetga teng kelib qoladi (*ohu qiz – ohuday qiz, oy qiz – oyday qiz*). Biroq bu turdagi barcha metaforik epitetlarga ham o'xshatish elementini qo'shib bo'lmaydi (*ukki+day ko'z emas, ukki ko'z, echki+day soqol emas, echki soqol, bodom qovoq+day qiz emas, bodom qovoq qiz* singari). Ayrim paytda epitet tarkibida o'xshatish ifodalovchi – *day/-dek* affiksi ham keladi, bu qo'shimcha olib tashlansa, ma'noga putur yetadi (*qizday yigit, mayizday kampir*). Nutqda sifatlash va o'xshatish uzviy aloqada bo'lib, badiiy obrazlilikda bir-biriga ko'chadi va predmetlarni xarakterlashda yordam beradi. Epitetlarda o'xshatish, o'xshatishlarda esa sifatlashlar keladi²⁵.

Muallif nazdidagi belgini bo'rttirib ko'rsatishda o'xshatish eng omilkor tasviriy vositalardan hisoblanadi va epitetlar shakllanishida faol ishtirok etadi. Bunday epitetlar sirasida Adv.+A, ya'ni [sifat+sifatdosh] modeli epitetlar ham bor. M., *Sizdan ikkita iltimosim bor, — deb yo'l bo'yidagi uzum g'o'ralari marjonday tizilib yotgan ishkom tagida to'xtadi.* (H.G'ulom, Qoradaryo) Bu yerda o'xshatish epitetni voqelantirayotgani yo'q, aksincha, bunda badiiy sifatlash asosan hozirgi zamon sifatdoshi orqali qaror topmoqda.

Epitet va frazeologizm. L. Boboxonova atributiv birikmani epitetga zid qo'yish orqali epitetning aniqlovchi bilan birga kelib, turg'un birikma hosil qilishini, davr o'tib, bu birikma frazeologizmga aylanishini uqtiradi²⁶. Olimaning mazkur fikrlariga qisman qo'shilsa bo'ladi. Ya'ni epitetlar davr bilan turg'unlik kasb etadi hamda ularning ma'lum miqdori frazeologizmlarga aylanadi.

Bunday holatlar o'zbek tilidagi frazeologizmlarning shakllanish manzarasiga juda ham mos. Jumladan, *barmog'(i)ni bigiz qilmoq, bag'r(i)ni ezmoq, bahr(i)dan kechmoq, bag'ri xun bo'ldi, bag'r(i) qon bo'ldi, bir paqir bo'lmoq* («qadr-qiyamatsiz» ma'nosida) singari²⁷. Biroq keltirilgan misollarda predikativ ma'no ustun bo'lganligi sabab, ularni epitet deb atab bo'lmaydi, chunki epitet – birikmaga teng qurilmalardir, predikativ qurilmalar esa, ega – kesim munosabatidan iborat bo'ladi hamda so'z birikmasi sanalmaydi.

Epitet va oksyumoron. Oksyumoron komponentlari o'zaro zid ma'noda birikib, ta'riflash qiyin bo'lgan vaziyatlarga nisbatan qo'llaniladi. M., “*Tirilgan murda*” – G'afur G'ulom asari, “*O'lik jonlar*” (V. Gogol asari), “*Optimistik fojea*”

²⁵ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.16.

²⁶ Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 58.

²⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б 32-84.

– pyesa nomi, *Blind Guardian* – “ko‘r qorovul”, “Oddiy mo‘jiza” (Ye.Shvars), “Aybsiz aybdorlar” (A.Ostrovskiy), *Cold Heat* (Villi Lommel), “*Back to the Future*” (R.Zemekis), “*Little Giants*” (Dueyn Damen)²⁸ asarlari, shuningdek, *katta bolalar, quruq may* (suxoe vino), *bechora boy, tirik jasad, qonundagi o‘g‘ri, yangi an‘analar, yorug‘ zulmat, aqqli tentak* kabi aniqlovchili birikmalar aslida epitetdir. Ular ham predmetni tavsiflovchi, baholovchi A+N modeli qurilmalardir.

Epitet va evfemizm. Epitetlarning ayrimlari XVI-XVII asrlardagi evfemistik yozuvlardan kelib chiqqan (*a valiant youth, a trembling maiden*). Ingliz tilidagi evfemizmlarning 66,8 foizi ijtimoiy, 23,5 foizi gender, 5,8 foizi etnik turga mansub²⁹. “ABC of Dirty English” lug‘atida ingliz tilidagi 10000 ta tabulashgan va XX asrda faol ishlatilgan so‘zlar jamlangan. Evfemizmlar tuzilishga ko‘ra bir so‘zdan hamda komponentli birikmadan iborat bo‘ladi, demak, qayd etilganlarning barchasini epitet deb qabul qilish xato. Qolaversa, *boshini ikkita qilmoq, bir yostiqaqa bosh qo‘ymoq* kabi evfemik gaplar epitet hisoblanmaydi.

Epitet va disfemizm. Disfemizm ham evfemizmlarda bo‘lgani kabi, predikat ma‘noni ifodalashga xoslanib, matnda gap qolipida voqelanishi mumkin. Bu epitetlarning belgi anglatish vazifasiga zid holat. M., ingliz tilidagi *Black treacle oozing out of them, carry the adventure to its conclusion*³⁰ kabi disfemizmlarni epitet sifatida qarab bo‘lmaydi, negaki ularda hukm ifodalash jihati ayon.

Epitet va perifraza. Har ikki birlik matndagi vazifasiga ko‘ra farqlanadi, bunda perifraza – predmet, shaxs, joy kabilarni obrazli va oddiy tarzda qayta nomlashdir, shunisi bilan u predmet, shaxs, voqea, hodisa, joyni sifatlash, ulardagi belgini bo‘rttirib ko‘rsatuvchi epitetdan farq qiladi. Biroq bu farq epitetlar asosida perifrazalar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Epitet narsa, buyum, shaxs va boshqalarning belgisini ajratib ko‘rsatadi, perifraza esa murakkab, ilmiy tushunchalarga nom berishda (*The Opilliones spider is commonly referred to as the daddy long legs due to the size of its large legs; I have a pet called Fido, he is man’s best friend*), san‘at asarlarini nomlashda (*The sleeping king was less known by his real name Constantine XI*), mashhur shaxslar ismini tarixga muhrlashda (*The character Paul Robinson, in the TV show Neighbours, is more commonly referred to as moneybags or bags*) epitetning ana shu xususiyatidan foydalanadi. Chunki perifraza ham predmetni undagi yorqin belgilarga tayanib qayta nomlaydi. O‘zbek tilidan farqli, ingliz tilida epitetlardan hosil bo‘lgan perifrazalar miqdoran ko‘p (geografik obyektlarni sifatlovchi: *Blue Mountains - Moviy tog‘lar*, taniqli shaxslarni ta‘riflovchi perifrastik birikmalar: *Nilgiri Hills, Hindiston* va b.).

Ko‘rib chiqilgan 166 ta geografik obyekt nomining 118 tasi sof perifrastik, qolgan 48 tasi epitet asosida shakllangani aniqlandi. Taniqli kishilarni ta‘riflovchi

²⁸ Okzyumoron haqida Wikipediya dan misollar https://ru.wikipedia.org/wiki/дан_олинди.

²⁹ Варфоломеев Ф.В., Зенкевич И.В. Дисфемизмы в английской литературе XX века. Модернистская направленность [Электронный ресурс] // Язык и текст. 2022. Том 9. № 2. С. 36–41. Bunda: Лазаревич Е.М. Употребление эвфемизмов с функцией политкорректности в публицистических текстах (на материале английского языка) [Электронный ресурс]. Вестн. Томск: Том. гос. ун-та, 2014. №378. – С. 25-29. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/upotreblenie-evfemizmov-s-funktsiey-politkorrektnosti-v-publitsisticheskikh-tekstah-na-materiale-angliyskogo-yazyka>

³⁰ Misollar quyidagi manbadan olingan bo‘lib, mualliflar mazkur jummalarni ingliz adabiyotiga mansub disfemizmlar sifatida talqin qiladilar. Qarang: Варфоломеев Ф.В., Зенкевич И.В. Дисфемизмы в английской литературе XX века. Модернистская направленность [Электронный ресурс] Язык и текст. 2022. Том 9. № 2. С. 36–41.

perifrazalar (*Christina of Sweden, the Snow Queen – Shvetsiya qirolchasi Kristina, Qor malikasi*)ning katta qismi epitetlarga to‘g‘ri keladi. Perifraza epitetdan grammatik ko‘rsatkichlari bilan farqlanadi. Epitetning perifrazani shakllantirishdagi sifatlovchi+sifatlanmish konstruksiyasining faolligi sof perifrazalarning ot+ot konstruksiyali modellarda voqelanishiga sabab bo‘ladi. Epitet perifrazalarning shakllanishida ishtirok etadi: perifraza uchun asos qurilma sanalgan ot+ot konstruksiyasida epitet birinchi ot o‘rnida keluvchi sifat+sifatlanmish, boshqacha aytganda, aniqlovchi+aniqlanmish vazifasida keladi hamda shu bilan ot+ot konstruksiyasidagi perifrazani kengaytirib keladi.

Tahlillar epitetlar hosil bo‘lish imkoniyati ingliz tiliga nisbatan o‘zbek tilida yuqori ekanini isbotladi. M., o‘zbek tilida: *bulut* (81 ta kombinatsiya), *havo* (111 ta), *shamol* (78 ta), *dard* (99 ta), *dunyo* (91 ta), *gap* (184 ta), *hayot* (235 ta), *ko‘zlar* (184 ta), *ko‘ngil* (106 ta), *kulgu* (95 ta), *lablar* (113 ta), *nur* (89 ta), *ovoz* (145 ta kombinatsiya) va hk. so‘zlar bilan hosil bo‘lgan epitetlar bunga isbot (1-jadval):

O‘zbek tilida			Ingliz tilida	
yetakchi so‘z (aniqlanmish)	Kombinatsiya miqdori		yetakchi so‘z (aniqlanmish)	Kombinatsiya miqdori
1.	Qalb	162	Soul	99
2.	Ovoz	145	Voice	53
3.	Quyosh	78	Sun	50
4.	Savol	72	Question	61
5.	Sevgi	63	Love	165
6.	Tabassum	68	Smile	61
7.	Taqdir	65	Destiny	53
8.	Yuz	171	Face	52
9.	Bulut	81	Cloud	64
10.	Havo	111	Air	117
11.	Shamol	78	Wind	55
12.	Hayot	235	Life	56
13.	Ko‘zlar	184	Eyes	63
14.	Dunyo	91	World	52
15.	Kulgu	95	Laughter	56
16.	Lablar	113	Lips	59
17.	Nur	89	Light	52
Sochlar		106	Ekvivalentsiz	
	Yo‘l	103	Beauty	79
	Chehra	65	Dawn	57
	Dard	99	Power	69
	Gap	184	Sorrow	56
	Ko‘ngil	106	Answer	89
	Ovoz	145	Talk	53
			Tears	50
			Way	55

1-jadval. Ingliz va o‘zbek tillaridan tayanch so‘z sifatida tanlangan birliklar, shuningdek, har bir tilda faol sanalgan ayrim leksemalar kombinatsiyalarining nisbati

I.R.Galperin ingliz tilida obraz hosil qilmaydigan epitetlarni quyidagicha bo‘ladi: 1)ko‘chirilgan epitetlar – *understanding smile* (anglayotgan tabassum), 2)oksyumoronli epitetlar, 3)giperbolik epitetlar, 4)antonomaziyali epitetlar³¹. Ko‘chirilgan epitetlarda his etilayotgan tuyg‘u jonsiz predmetga o‘tkazib beriladi. Oksyumoronli epitetlar esa A+N modeli atributiv birikmani³² tashkil qiladi: *tolerant superiority* – qoniqarli qoyilmaqomlik. Epitet va oksyumoron ham gapda atributiv qurilma bo‘lib keladi³³. Epitetlarning bu turi o‘zbek tilida kuzatilmaydi. Shu kabi, 1)giperbolik epitetlar (belgining bo‘rttirilib, ajratib ko‘rsatilishi: *indescribable beauty*), 2)antomaziyali epitetlar (N+N modeli predmetni qayta nomlash orqali sifatlash: *Gorgonglance, Jokondasmile*³⁴) o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham mavjud. M., *behad shukur, behad go‘zal qiyofa, dimog‘i chog‘ odam, behad suyguvchi qalb, o‘ta razil reja*. Biroq o‘zbek tilida bu tur ifodalardagi aniqlanmish ko‘p o‘rinlarda tuslanish shaklida kelib, aniqlovchi o‘rnida emas, ot-kesim vazifasiga xoslanadi (*behad minnatdor+man, behad mamnun+man*).

Ingliz tilida ko‘chirilgan epitetlar grammatik tizim uchun me‘yordir³⁵ va Ye.I.Barancheeva ko‘chirilgan epitetlar: *guilty cup of tea* – aybdor bir finjon choy, *lazy bath* – yalqov vanna, *diffident music* – ehtiyotkor musiqa, *protesting chair* – isyonkor stul kabilar misolida ko‘chirilgan epitet negizida harakatning nutq vaziyatining o‘zga ishtirokchisiga o‘tkazilishini qayd etadi³⁶.

Personifikatsion epitetlar ko‘chirilgan epitetlardan farqlanadi. M., *bezovta g‘ichirlyotgan daraxtlar* va *yig‘layotgan tun*. Birinchi misolda belgining ko‘chirilishi mavjud emas, zotan, harakat daraxtlar ustida bajarilmoqda. Ikkinchi misolda esa tuni bilan bedor bo‘lgan kimsaning kuchli emotsional holati tunga ko‘chirilmoqda. Bu esa ko‘chirilgan epitetga misol bo‘ladi.

Ingliz tiliga xos epitet turlaridan yana biri *ikki bosqichli epitetdir*. Bu epitet yadroviy so‘z birikmasi bo‘lib, u bog‘liq komponentlardan: harakat tarzini ko‘rsatuvchi ravish va sifat yoki sifatga xos darajaga ega sifatdosh bilan bog‘lanadi. Ikki bosqichli epitetlar to‘rt asosiy model bo‘yicha shakllanadi: a) adverb + adjective + noun/pronoun: a gloomy lonely tree; b) adverb + participle + noun/pronoun: stupidly frightened eyes; c) noun/pronoun + adverb + adjective: eyes inquisitively sharp;

d) noun/pronoun + adverb + participle: something savagely damaging. Ikki bosqichli epitetlarda adverbial va atributiv komponentlar mavjudligi bu tur epitetlarini semantik-stilistik jihatdan murakkab deb baholashga asos beradi³⁷. Uning bir yoki har

³¹ Кривцова В. Особенности перевода эпитетов на русский язык (на материале цикла произведений Джорджа Мартина «Песнь льда и пламени»). – Белгород, 2019. –78 с.

³² Гальперин И.Р. English Stylistics: стилистика английского языка. – М.: Либроком, 2010.–336 с.

³³ Гальперин И.Р. English Stylistics: стилистика английского языка. – М.: Либроком, 2010.–336 с.

³⁴ Гальперин И.Р. English Stylistics: стилистика английского языка. И.Р. Гальперин – М.: Либроком, 2010. – 336 с.

³⁵ Баранчеева Е. И. Семантические механизмы английского перенесенного эпитета. Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – Новосибирск: НГУ, 2(30)2016. –С.4

³⁶ Баранчеева Е. И. Семантические механизмы английского перенесенного эпитета // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – Новосибирск: НГУ, 2(30)2016. –С.4

³⁷ Любковская О.А. Классификация семантических отношений компонентов двухступенчатого эпитета в парадигматическом и синтагматическом аспектах. Science Journal of VolSU. Linguistics. 2018. Vol. 17. No. 1.–С 115.

ikki komponenti ham emotsional-baho va ifodaviy bo‘yoqqa ega bo‘lib, aniqlanadigan so‘zga badiiy-xususiy tavsif beradi.

“**Ingliz va o‘zbek tillarida epitetlarning leksikografik xususiyatlari**” nomli uchinchi bobda epitetlar leksikografik talqini hamda o‘zbek tili epitetlar izohli lug‘atini tuzish muammolari ko‘rib chiqilgan.

Epitetlar leksikografiyasida ikki asosiy jihat mavjud: 1)lug‘atning bir tilli yoki bir necha tilli ekaniga ko‘ra epitetlarni tarjima qilish muammolari va 2)lug‘atda epitetlarni tasniflash, tavsiflash muammolari.

Bugungacha o‘zbek tili epitetlar lug‘ati tuzilmagan, ingliz tilida esa epitetlar lug‘atchiligi bir necha asrlik tajribaga ega. C.D.Yongening “Latin gradus” Dictionary of epithets³⁸, “Classified according to their English meaning” (1856) asari shular jumlasidan. Lug‘atda so‘zliklar o‘zakdagi dastlabki uch fonemaning alifbo tartibidagi ketma-ketligida joylashtirilgan. Epithetlarni izohlashda so‘zning qo‘llanish miqdori, ma‘nosi, har bir sifatni yuzaga chiqarayotgan mavzu bilan aloqasi va boshqalar hisobga olingan. M., **acceptor**. A receiver.-EP. *Joyful, lætns, hīlāris, fēlix. accessus, ūs. Approach, or passage of approach.-EP. Easy, fācīlis, pāratūs.*

Difficult, dīffīcilis. Speedy, cītus, rāpīdus. Slow, tardus. Early, seasonable, mātūrus, terapestīvus. Late, sērus. Lug‘at birliklari lotin alifbosida berilgan. Bu ingliz tili epitetlarining katta qismi lotin tilidan o‘zlashganini tasdiqlaydi.

“A Dictionary and Thesaurus of Contemporary Figurative Language and Metaphor” – hozirgi zamon metaforalari tezaurusining maqsadi esa ingliz tilidagi metaforik ifodalarni “shakl va zamin”, “maqsad va manba”, “fizik asos va soha” kabi kategoriyalarga bo‘lib, ESL (ingliz tili ikkinchi til sifatida) va EFL (ingliz tili chet tili sifatida) o‘qituvchilari uchun manba yaratishdir³⁹. Bunda til o‘rganuvchiga metaforik kollokatsiyalar haqida keng ma‘lumot keltirilgan (m., “Pursue”: *pursue a dream* – orzuni kuzatmoq; *pursue it with (great) vigor* – uni (katta) qat‘iyat bilan amalga oshirmoq;

I intend to pursue (full investigation) – Men to‘liq tekshiruvni amalga oshirmoqni niyat qildim; *pursue their (own hidden) agendas* – o‘zlarning (yashirin) maqsadlarini amalga oshirmoq; *pursue (both old and new) approaches* – (eski va yangi) yondashuvlarni kuzatmoq; *NASA will pursue simultaneously* – NASA bir vaqtning o‘zida ish olib boradi; *pursue an (acting) career* – (aktyorlik) kasbini kuzatmoq; *he moved to Los Angeles to pursue* – u Los-Anjelesga ko‘chib o‘tib, maqsadini amalga oshirmoqchi kabi⁴⁰.

Tadqiqot doirasida epitetlar lug‘atining mobil ilovasini tuzish maqsadida xuddi shu ekvivalentlikning har ikki tilda kuzatilishi tekshirildi (2-jadval).

O‘zbekcha	Inglizcha		Mos keluvchilar (to‘g‘ridan -to‘g‘ri tarjima)	Ma‘nosi mos keladi	Asosi boshqa so‘z	Qo‘shimcha so‘zlar	
Mos so‘zlar							
Havo	49	Air	41	15	8	18	8
Bulut	65	Cloud	57	8	5	44	8

³⁸Yonge C.D. “Latin gradus” Dictionary of epithets , Classified according to their english meaning”London: Longman, Brown, Green, And Longmans. 1856. –108 p.

³⁹ Gagen Joseph Stockdale III. A Dictionary and Thesaurus of Contemporary Figurative Language and Metaphor (online) May 19, 2019. .– 982 p.

⁴⁰ Gagen Joseph Stockdale III. A Dictionary and Thesaurus of Contemporary Figurative Language and Metaphor (online) May 19, 2019. .– 982 p.

Sevgi	33	Love	74	5	6	22	41
Taqdir	29	Destiny	52	5	7	11	23
Ko'zlar	58	Eyes	57	16	9	32	1
Kulgi	48	Laughter	43	13	5	25	5
Hayot	63	Life	53	14	11	28	10
Tong	34	Dawn	52	9	1	24	18
Boshqa-boshqa so'zlar							
Dard		Answer					
Dunyo		Beauty					
Ko'ngil		Face					
Qalb		Light					
Savol		Lips					
Tabassum		Heart					
Yo'l		Hope					

2-jadval. Ingliz va o'zbek tillaridagi epitetlarda ekvivalentlik darajasi (raqamlar misolida)

O'zbek tilidan farqli, ingliz tilida tuzilgan lug'atlarda epitetga berilgan izohlar turli darajadagi: quyi, ba'zida esa o'rta murakkabliklarni namoyon etadi va keng ommaga mo'ljallanadi; rus izohli lug'atlari tor ilmiy auditoriyaga mo'ljallangani sababli ular ilmiy tadqiqotchilik maqsadida tuziladi. M., M.Joshining "Dictionary of Literary Words (Vocabulary Building)" nomli lug'ati "English Word Power" (*Inglizcha so'zning qudrati*) turkumidagi 30 tomlik kitobning 7-to'plami hisoblanadi. Unda so'zlarning asosan obrazli ifodasi shunday talqin qilingan: Figurative Use of the Words - A

abyss [noun]

In a general sense – a very deep wide crack or opening in the ground

In a literary sense – extremely worrying situation | a profound difference between people, nations, etc.

Use in figurative language: We should never fall into an **abyss of despair**⁴¹.

Lug'at uch asosiy: 1) kitobiy so'zlar, 2) so'zlarning obrazli qo'llanilishi, 3) adabiyotshunoslik terminlari ruknlaridan tashkil qilingan, har bir rukn so'zliklari alifbo tartibida keltirilgan; lug'at maqolalari esa yagona tamoyil asosida tuzilmagan: ayrim so'zliklar tegishlicha misollar bilan dalillangan, biroq ular illyustrativ misol sifatida muayyan manbaga tegishlilikni ko'rsatadigan belgilarga ega emas. Ayrim so'zliklar biror misol bilan dalillanmagan shaklda izohlangan.

D.Leslie muallifligidagi "Dictionary of Epithets and Terms of Address"⁴² – "Epitetlar va murojaat shakllari lug'ati" – ingliz tilida murojaat shakllari, epitetlar va ularning ishlatilishi haqidagi maxsus lug'at. Mazkur lug'atda murojaat shakllari XVI va XVII asrlarda "thou/you" olmoshlari tizimi buzilgandan keyin, alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Shundan beri ular ingliz tilida grammatik jihatdan ko'proq ahamiyatga ega bo'lib, ikki yoki undan ortiq "you" so'zlarini saqlab qolgan tillarga qaraganda ko'proq urg'u olgan⁴³.

⁴¹ Manik Joshi Dictionary of Literary Words (Vocabulary Building). Copyright Manik Joshi 2014. –126 p. <http://www.smashwords.com/profile/view/manikjoshi>.

⁴²Dunkling Leslie. Dictionary of Epithets and Terms of Address. –London: Routledge, 2007. –275 p.

⁴³Dunkling Leslie. Dictionary of Epithets and Terms of Address. –London: Routledge, 2007. –275 p.

O‘zbek tilida epitetlar izohli lug‘ati tuzilmagan. O‘TILning turli yillardagi nashrlarida epitetik birikmalarga katta o‘rin berilgan bo‘lsa-da, biroq ular epitetga ishora beruvchi biror pometa bilan belgilanmagan. Zotan, stilistik ahamiyatli unsurlarni ajratib, ularning lingvistik maqomini oydinlashtirish O‘TILning bosh maqsadi hisoblanmaydi. O‘z-o‘zidan, o‘zbek tili epitetlari izohli lug‘atini tuzish dolzarb va ahamiyatli masala ekani ayonlashadi.

Qozoq tilidan farqli, qirg‘iz, tojik, turkman tilining epitetlar izohli lug‘ati yaratilgani bizga ma‘lum emas; belorus, rus tillarida epitetlar lug‘atlari yaratilib, ularning har biri lug‘at tuzishning alohida tamoyilini namoyish etgani kuzatildi.

Yaratilajak epitetlar lug‘ati quyidagi tamoyillarda tuzilishi lozim: 1)lug‘at maqolasi bosh so‘z – obrazli leksik yoki frazeologik birlik; 2)struktur-semantik toifaga ishora beruvchi maxsus belgi (pometa); 3)obraz ifodalovchi ma‘noning izohi; 4)emotsional-baholovchi va uslubiy pometalar (ekspr., kinoya, haqorat, disfem. va b.); 5)birlikning diskursiv xoslanishini anglatuvchi pometalar (so‘z., bad., ilm., pub., ras., siyos. va h.); 6) birlikning sintaktik qurshovda kelish imkoniyati (valentligi); 7)birlikning diskurslararo (badiiy, publitsistik, so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, siyosiy va b.) qo‘llanilishiga oid illyustratsiyalarni jamlaydi. Bunda 6-banddagi birlikning sintaktik qurshovda kelish imkoniyati (valentligi) jihati asosan raqamli lug‘atlar uchun nazarda tutiladi⁴⁴.

Biz taklif qilayotgan <https://epithets.netlify.app/> ilova android qurilmalar va kompyuterda foydalanish uchun teng imkoniyatga ega bo‘lib, PHP v7.2 (Laravel Framework v6.2) dasturlash tili yordamida ishlab chiqilgan. Veb - ilovada epitetlarning o‘zbek va ingliz tilidagi variantlari keltirildi. Biz taklif etayotgan ilova yordamida til o‘rganuvchi uchun epitetlarni shu ko‘rinishda qidirish, tanlash va variantlari bilan ko‘rish, epitetlarning ingliz tili va o‘zbek tilidagi muqobillarini topish, misollarni cheklanmagan miqdorda kiritish, xorijlik qiziquvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu nuqtada ta’kidlash joizki, hozirgi kunda O‘zbekistonda figurativ leksikografiya deyarli mavjud emas, ya’ni bu soha hali to‘liq shakllanmagan. Uni rivojlantirish va mukammallashtirish maqsadida biz quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlash.

Figurativ leksikografiyani yo‘lga qo‘yish va uni shakllantirish maqsadida davlat ahamiyatidagi grantlar e‘lon qilinishi lozim. Ushbu yo‘nalishda davlat mablag‘i hisobidan amaliy, fundamental va innovatsion loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Bizga ma‘lumki, xorijiy mamlakatlarda bu jarayon allaqachon yo‘lga qo‘yilgan hamda aynan shu turdagi loyihalar doirasida ko‘plab shoir va yozuvchilarning asarlari asosida epitetlar lug‘atlari yaratilgan.

2. Lingvodidaktik ahamiyatli lug‘atlar yaratish.

⁴⁴Maxmaraimova Sh.T. O‘zbek tilida figurativ leksikografiyani rivojlantirishning lingvistik asoslari. – Filologik tadqiqotlar: Til, adabiyot, ta’lim. 2021. №3–4(5). –B. 16-19.

Epitetlar lugʻatlari lingvodidaktik jihatdan samarali boʻlishi uchun bitta lugʻatda turli mavzular boʻyicha birlashtirilgan, yaʼni ideografik tartibda tuzilgan epitetlar jamlanmasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday lugʻatlarni yaratish va chop etish tilni oʻrgatish va oʻrganish jarayonida nihoyatda foydalidir.

3. Epitetlar oʻquv lugʻatini ishlab chiqish.

Imkon qadar epitetlarning oʻquv lugʻatini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Maktab oʻquvchilari uchun tavsiya etiladigan epitetlar lugʻati bolalar adabiyotidan tanlangan epitetlarni oʻz ichiga olishi zarur. Lugʻat tuzishda uning qaysi yosh guruh vakiliga moʻljallanganini inobatga olish muhim: bolalar va oʻsmirlar uchun asarlar bolalar va oʻsmirlar adabiyotidan, katta yoshdagilar uchun esa mavzu va janr boʻyicha tegishli adabiyotlardan tanlanishi lozim.

4. Oʻzbek tili milliy korpusida epitetlar bazasini yaratish.

Oʻzbek tilining milliy korpusida epitetlar bazasini yaratish zarur. Ushbu baza kelgusida oʻquv lugʻatlari hamda figurativ leksikografiya boʻyicha yaratiladigan ishlanmalar uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sunʼiy intellektga keng imkoniyatlar berilayotgan hozirgi davrda bunday baza juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, sunʼiy intellekt tabiiy til imkoniyatlarini modellashtirish jarayonida mavjud epitetlarni oʻz tizimiga moslashtirish va modellashtirish imkonini beradi.

XULOSA

1. Oʻzbek tilida mavjud oʻquv-metodik adabiyotlarda epitetlar oʻzining ilmiy asoslangan talqinini topgan boʻlsa-da, bundan farqli, epitetlarning bevosita struktur, semantik tabiatiga bagʻishlangan ayrim tadqiqotlarda qoʻyilgan muammolarning toʻlaligicha yechilmay qolganligi, izohtalab talqin va tahlillar bajarilgan ishlar salmogʻidan qoniqmaslik qatorida, mazkur obyektga metodologik yondashuvlarni bir qadar mukammallashtirish talabini qoʻyadi.

2. Epitetning badiiylik xususiyatlarini unga yondosh til hodisalari bilan taqqoslab oʻrganish, bu vositaning boshqa turdagi badiiy ifodalar bilan qanday umumiylik va farqlarga ega ekanini aniqlash imkonini beradi. Shu boisdan, badiiy matnlarda uchraydigan har qanday obrazli ifodani epitet deb baholash toʻgʻri emas. Ularni lingvistik jihatdan tadqiq etishda, avvalo, ifodaning qaysi leksik-semantik guruhga mansubligi va matnda qanday pragmatik hamda stilistik funksiyani bajarayotganini aniqlash zarur boʻladi.

3. Epitetni: metafora, oʻxshatish, oksyumoron, evfemizm, disfemizm, perifraza, frazeologizmlar, aniqlovchili qurilmalar kabi oʻzga leksik, grammatik, stilistik hodisalardan farqlash zarur. Garchi epitetning yuzaga kelishida metafora asos vazifasini oʻtasa ham, epitetning dastlab sifatlash, metaforaning esa oʻxshatishni qayd etish vazifasiga xoslanishini unutmashlik, epitetning grammatik jihatdan sifatlovchi-sifatlanmish konstruksiyasi, metaforik ifodaning esa turli turkumlarda voqyelang qurilmalarda kuzatilishini yoddan chiqarmaslik lozim.

4. Epitetlarning leksik-semantik tabiatini ularni oʻzga tillarga oʻgirishda ochiqlash mumkin. Jumladan, ingliz va oʻzbek tillarida epitetlar tipologiyasiga doir

tahlillar o‘zbek tilidan farqli, ingliz tilida ko‘chirilgan epitetlar, ikki bosqichli epitetlar grammatik tizim uchun me‘yor ekanligi, mazkur tip epitetlarining o‘zbek tili qonuniyatlari uchun xos emasligini tasdiqlaydi. Aksincha, giperbolik va antomaziyali epitetlar har ikki tilda ham uchraydi.

5. Ingliz tilidagi epitetlar tadqiqida XIX asrga taalluqli lotin tilida tuzilgan lug‘atlarning ahamiyati ulkan bo‘lib, jumladan, tadqiqot yuzasidan amalga oshirilgan leksikografik tahlillar zamonaviy ingliz tilida figurativ lug‘atchilikning lingvodidaktik maqsadlarga xizmat qilayotgani hamda bu boradagi amaliyotlarda doimiy rivojlanish mavjudligini ko‘rsatdi.

6. Qadimgi va zamonaviy lug‘atlarda figurativ leksika keng qamrovli va kompleks yondashuv asosida tavsiflanadi. Bu holat, ayniqsa, epitetlar hamda boshqa obrazli til vositalarini qamrab olgan leksikografik manbalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, jahon lug‘atshunosligi tajribasida, xususan ingliz tilshunosligida epitet sifatida keltirilgan ayrim birliklar tarkibida metafora, metonimiya singari boshqa badiiy semantik vositalarning ham izohlanganiga guvoh bo‘lish mumkin. Shu sababli, epitetlar lug‘atini tuzish jarayoni nafaqat murakkab tahliliy yondashuvni, balki badiiy leksik birliklarning nozik farqlanishini chuqur o‘rganishni ham talab etadi. Bu esa uni boshqa leksik birliklarni lug‘atlashtirishga nisbatan ancha murakkab va mehnat talab qiladigan jarayonga aylantiradi.

7. Epitetik qurilmalarning hosil bo‘lish imkoniyati ingliz tilidan farqli, o‘zbek tilida yuqoridir. Shunga qaramay, o‘zbek tilining boy ichki imkoniyatini namoyon qiluvchi hamda til o‘rganuvchilarga qo‘l keluvchi o‘zbek tili epitetlari lug‘atini tuzish masalasi ochiqligicha qolmoqda.

8. Bugunga qadar o‘zbek tili epitetlari va figurativ leksikografiyaning tadqiqida leksikografik yondashuvning mavjud emasligi o‘zbek tilida epitetlar lug‘atini tuzishga doir mavjud bo‘shliqlarning yuzaga kelishiga sabab ko‘rsatgan.

9. Epitetlar lug‘atini tuzishda tilning umumiy tizimini emas, balki muayyan adib idiolekti doirasida yondashuvni asosiy metod sifatida tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday yondashuv figurativ leksikografiyani shakllantirishda asosiy kontseptual mezonlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Zero, epitet tarkibidagi asosiy komponent — tayanch leksema — va uning mazkur ijodiy uslubda qanday kollokatsion aloqalarga kirishayotgani, ularning kontekstual funksiyalari va semantik xususiyatlarini aniqlab, yagona izohli tizimda jamlash zarur bo‘ladi. Bu kabi tizimli yondashuv, nafaqat epitetlar tabiatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi, balki lingvistik korpusni boyitish nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyat kasb etadi.

10. O‘zbek tilida yaratilajak epitetlar lug‘atini quyidagi tamoyillarda tuzish tavsiya etiladi: 1)lug‘at maqolasi bosh so‘z – obrazli leksik yoki frazeologik birlik; 2)struktur-semantik toifaga ishora beruvchi maxsus belgi (pometa); 3)obraz ifodalovchi ma’noning izohi; 4)emotsional-baholovchi va uslubiy pometalar (ekspr., kinoya, haqorat, disfem. va b.); 5)birlikning diskursiv xoslanishini anglatuvchi pometalar (so‘z., bad., ilm., pub., ras., siyos. va h.); 6) birlikning sintaktik qurshovda kelish imkoniyati (valentligi); 7)birlikning diskurslararo (badiiy, publitsistik, so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, siyosiy va b.) qo‘llanilishiga oid illyustratsiyalarni jamlaydi.

Bunda 6-banddagi birlikning sintaktik qurshovda kelish imkoniyati (valentligi) jihati asosan raqamli lugʻatlar uchun nazarda tutiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 AT NAMANGAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN
LANGUAGES NAMED AFTER ISHAKKHAN IBRAT**

TERMEZ STATE UNIVERSITY

MARDONOVA RANO OCHILDIEVNA

**LEXICO-SEMANTIC AND LEXICOGRAPHIC FEATURES OF THE
EPITHET IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**10.00.06 – Comparative study of Literature, Contrastive Linguistics
and Translation studies**

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL SCIENCES

Namangan – 2025

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number № B2022.2.PhD/Fil2576.

The doctoral dissertation was carried out at Termez state university.

The abstract of dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the Scientific Council website (www.namsifl.uz) and on the website "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyo.net).

Scientific supervisor: **Maxmaraimova Shoxista Tuxtashevna**
Doctor of Philological Sciences (DSc), professor

Official opponents: **Abduvaliev Mamamatjon Arabovich**
Doctor of Philological Sciences (DSc), professor


Uralova Oysuluv Poyon kizi
Doctor of Philological Sciences (DSc), docent

Leading organization: **Karshi state university**

The defense of the dissertation will take place on "18 November 2025, at 9:00 at the meeting of the Scientific Council for awarding of Scientific Degrees PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 at Namangan State Institute of Foreign Languages. (Address: 100a Yoshlik Street, Orzu MCA, Davlatobod District, Namangan City, Namangan Region. Phone: +998 (69) 442-11-67; e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of Namangan State Institute of Foreign Languages (registration № 116). (Address: 100a Yoshlik Street, Orzu MCA, Davlatobod District, Namangan City, Namangan Region. Phone: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

The abstract of the dissertation was distributed on "6 November 2025.
(Protocol at the register № 2 on "6 November 2025.)



N.T. Dosbayeva
Chairman of the Scientific Council
Awarding Scientific Degrees,
Doctor of Philological Sciences
(DSc), Professor

I.I. Umrzakov
Scientific Secretary of the
Scientific Council Awarding
Scientific Degrees, Doctor of
Philological Sciences Philologyal
(PhD), Docent

S.A. Misirov
Chairman of the Scientific
Seminar at the Scientific Council
Awarding Scientific Degrees,
Doctor of Pedagogical Sciences
(DSc), Docent

INTRODUCTION (Annotation of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation)

Actuality and necessity of the dissertation topic. In world science, figurative units that enhance the evaluative expression, expressive, aesthetic and emotional functions of the text and increase its imagery have been studied in the context of philological and linguophilosophical since ancient times. The complexity of addressing epithets, which are the common object of study for both literature and linguistics, is observed in that it serves as both a rhetorical and stylistic element simultaneously. However, the prospects of studying epithets within a lexicographic framework since the 19th century have provided the opportunity to outline the increasingly "linguistic" nature of these units. Nevertheless, there has not yet been a unanimous conclusion regarding the linguo-stylistic and semantic properties of epithets, which are the object of study for several fields.

Epithets are being researched by linguists worldwide from a lexico-semantic, grammatical, and stylistic perspective. This category, considered an integral part of figurative vocabulary, has certain methodological views on the formation patterns and classification of these expressions, some of which have failed the test of time and have fallen out of scientific use. This is because, at this point in researching typological languages, the linguistic universal does not justify itself, as evidenced by various systematic languages. Therefore, the differences in the classification of figurative elements belonging to various language families and the distinctions in their linguistic interpretation necessitate a thorough study of the regularities of epithet realization in each language. Moreover, in an era of rapid language integration, there is a constant need for research dedicated to revealing the full charm of national languages through such studies.

In the period of independence, significant attention has also been given to lexicology, as in many other fields. Several new editions of the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" have been published in recent years, and the two-volume "Explanatory Dictionary of Synonyms of the Uzbek Language" has been introduced for scientific and everyday use. Indeed, "Every nation, every independent state must prioritize preserving and developing its culture, ancient values, and native language while ensuring its national interests"¹. Nevertheless, the need to construct Uzbek figurative lexicography, which embodies the internal potential and charm of our language, remains high. Specifically, researching the structure and lexical aspects of the system of epithets in the Uzbek language and creating lexicographic works that reflect their semantic nature are among such urgent issues.

The presidential decrees of the Republic of Uzbekistan, such as PD-4997 dated May 13, 2016, regarding the establishment of the "Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature", PD-4947 dated February 7, 2017, "On the Action Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan", PD-5850 dated October 21, 2019, "On measures to fundamentally strengthen the status and position of the Uzbek language as the state language", PD-6084 dated October 20,

¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On Measures for the Fundamental Enhancement of the Status and Role of the Uzbek Language as the State Language" // <http://lex.uz/docs/4561730>. Accessed date and time: March 10.05.2023, 15:10.

2020, “ On measures for the further development of the Uzbek language and the improvement of language policy”, as well as PR-2789 dated February 17, 2017, “On measures to enhance the organization and financing of scientific research activities of the Academy of Sciences” and PR-4479 dated October 4, 2019, “ On the wide celebration of the 30th anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language”, the resolutions of the Cabinet of Ministers, including Resolution No. VMQ-222 dated October 7, 2010, “On the Approval of the State Program for the Protection, Preservation, Promotion, and Utilization of Intangible Cultural Heritage Objects for 2010-2020” along with other regulatory and legal documents related to this field, play a certain role in implementing the tasks set forth in this dissertation.

Relevance of the research with the priority direction of the Republic’s science and technology development. The dissertation is aligned with the priority direction of the Republican science and technology development: “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state”.

Level of study of the problem. To date, the figurative, lexical-stylistic, and lexicographic characteristics of epithets have been researched by the philosophers of antiquity, medieval European scholars including Aristotle, Quintilian, Demetrius, Georgius, Trasimachus, Isocrates, Mate de Vand, Joffroy de Vinsof, Kerve de Melklo, Jan de Garland and several foreign linguists S.Balli, R.Jakobson, M.Bakhtin, R.Vallek, O.Warren, J.Lakoff, M.Johnson, B.M. Dupriez, G.Leech, C.Nesfield, G.Lakoff, R.A.Lanham, T.Wood, T.M.Bernstein, J.A.Cuddon, R.Jackendoff, linguists from the CIS countries I.V.Arnold, I.R.Galperin, L.Tursunova, G.Pospelov, M.Kuznets, Yu.Skrebnev, L.Timofeyev, N.Vengrov, A.Shaligin, B.V.Tomashevsky, V.M.Jirmunskiy, K.S.Gorbachevich, A.N.Veselovskiy, A.Gornfeld, I.Ye.Barancheeva, S.A.Gubanov, and others².

